

SHOH VA SHOIR

*Sayfiyeva Bog'dagul Umirjon qizi,
Navoiy davlat pedagogika instituti
Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD) N.J.Yarashova*

Annotatsiya: Boburning mumtoz shoir, buyuk podshoh, nazariyotchi, adabiyotshunos, fiqh, tilshunos, san`atshunos, etnograf, hayvonot va nabodot olamining bilimdoni sifatida faoliyati, qilgan ishlari va donishmandlarning fikri haqida ma`lumotlar jamlangan.

Kalit so`zlar: Tarixchi, lashkar, ekspidetsiya, muzey, etnograf, mutaassiblik.

Davrga ta'sir etgan omillar yurtimiz tarixida zarhal harflar bilan bitilgan ulkan xazinadir. Mamlakatimizning dunyoga mashhur bo'lishida, insonlar tarbiyasida bu davr o'z rolini bajarmoqda va mustaqilligimizni mustahkamlashda, xalqimizning milliy g'ururini shakllantirishda xizmat qilmoqda.

“Tarixchi, boburshunos G'.Sotimovning quyidagi fikri bu masalaga yanada oydinlik kiritadi: Albatta, Hindistonda bo'lganida u mahalliy hindlar diniga nisbatan murosasizlik qilgan hollar ham ko`zga tashlanadi, lekin bu hol faqat jang paytlarida, g`oliblik ishtiyoqida yongan onlaridagina seziladi.... ularni g`ayridin bo'lgani uchun emas, balki o`z saltanatini kengaytirish yo`liga g`ov bo'lgan raqib sifatida yo`lidan olib tashladi. Bu maqsad yo`lida u faqat g`ayridin rajputlarnigina emas, balki musulmon afg`onlarning ham ko`pini o`rtadan ko`tarib tashlaganligini unutmazlik kerak”¹

U favqulodda nodir istedodi, beqiyos insoniy salohiyati bilan haqli ravishda jahon ahlining hayrat va ehtiromiga musharraf bo'ldi. Ayni fazilatlar bilan u millatimizni, xalqimizni butun olamga tanitdi. Va shu bois u millatimizning, xalqimizning iftixor bayroqlaridan biriga aylandi. Dunyodagi ne-ne fozil insonlar uning haqida hali-hanuz hayrat va e'tirofga to`la hikoyalar so`zlaydilar.

Bu zot-ulug` ajdodimiz, qadim Turon-Turkiston yerining pahlavoni Zahriddin Muhammad Boburdir.²

Har bir davrning moddiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etuvchi o'z omillari bo'ladi. Temuriylar davri ma'naviyatining yuksalishiga ta'sir etgan omillar- XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda ro'y bergan o'zgarishlar, buyuk Uyg'onish davri (Sharq Renessansi) kashfiyotlari, ilm-fan sohasidagi katta o'zgarishlar, buyuk allomalar Ibn Sino, Forobiy, Farg'oniy, Beruniy, Buxoriy, Bahouddin Naqshband va boshqalarning asarlari, keyingi asrlardagi voqealardir.

Boburning o'z guvohligiga ko'ra, shoir sifatida ijodiy faoliyati Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqtda boshlangan; «Ul fursatlarda biror-ikkirar bayt aytur edim», deb yozadi u. Bobur Samarqanddaligining ilk oylarida Alisher Navoiy

¹G'.Sotimov, "Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri", Toshkent, 2009, 64-bet.

² Hayriddin Sulton "BOBURNOMA" >SHARQ>NASHRIYOT-MATBAA KONSERNINING BOSH TAHRIRIYATI >TOSHKENT-1997-yil 4-bet. I.A.Karimov Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz faravonligini oshirishga xizmat qiladi.-T.: O`zbekiston, 2011.-B.3.

tashabbusi bilan ular o'rtasida yozishma boshlanadi. Bobur atrofida ijodkorlar to'plana boshlashi ham shu yillarga to'g'ri keladi. Jumladan, Binoiy, Abulbaraka va Bobur o'rtasidagi ruboiy mushoirasi Samarqanddagi qizg'in adabiy hayotdan darak beradi. Umuman, davlat arbobi va ko'p vaqti jangu jadallarda o'tgan sarkarda sifatida ijtimoiy faoliyatining eng qizg'in davrida ham, shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda murakkab va xatarli sharoitda qolgan chog'larida ham Bobur ijodiy ishga vaqt topa bilgan, ilm, san'at va ijod ahlini o'z atrofiga to'plab, homiylik qilgan, ularni rag'batlantirgan.³

Ulug' o'zbek shoiri, mutafakkir, tarixchi va davlat arbobi; markazlashgan davlat va boburiylar saltanati asoschisi. O'zbek mumtoz adabiyotiga o'lgan hissa qo'shgan istedodli sarkarda, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining 47 yillik umri davomida ilm ma'rifat bilan birga hamnafas yashab "Boburnoma" deb atalmish me'muar asarini yozib qoldirdi. Bobur bir qancha jangu jadallarda bo'lishiga qaramay ilm-ma'rifat ijod bilan ham sermahsul shug'ullandi. Bobur tomonidan yaratilgan ilmiy merosning ba'zilar bizgacha yetib ham kelmagan, yetib kelganlari esa hali to'lig'icha o'rganilmagan. Uning g'azal va ruboiylarini o'qir ekanmiz o'zga yurtlardagi sarson sargardonligi va o'z yurtiga bo'lgan mehri, tongi nasim shamoli kabi yelib turadi. U umrining so'ggi yillarida aniqrog'i 1528-1529-yillarda uning "Risolai Volidiya" nomli asarini tarjima qilgan. Bu haqida u "Boburnoma" da shunday yozadi "Seshanba kechasi, safar oyining yigirma yettisida Hazrat Hoja Ubaydulloning "Volidiya" risolasini nazm qilmoq xotiring'a kechti, hazratning ro'hig'a iltijo qilib, ko'nglumga kechurdumkim, agar bu manzum ul hazratning maqbuli bo'lur..." "Boburnoma"da XV-XVI asrlarda yashagan turkiy xalqlar hayotidan tashqari O'rta Osiyo, Xuroson, Hindiston, Afg'oniston va boshqa xalqlarning tili, dini, urf-odatlarini, madaniyati turmish tarzlari haqida ham muhim manbalarni ham keltirib o'tadi. Boburning soliq ishlari haqida ma'lumot beruvchi "Mubayyinul-zakat" (1521), "Boburnoma" yaratilganidan boshlab to hozirgi kungacha ham jahon olimlarining nigohidan chetda qolgan emas uni o'rganish borasida jahon olimlarini nigohini o'ziga tortib kelmoqda. Buning asosiy mazmun mohiyatlaridan biri asarning ilmiy falsafiy kengligi va asarning falsafiy qimmatligida ham izohlash mumkin. Keyingi yillarda ham "Boburnoma" bir necha tillarga tarjima qilindi. Jumladan u 1995-1998-yillar uch jildidan iborat "Boburnoma" asari Kyoto universiteti professori Eyji Mano tomonidan yapon tilidagi tarjimini amalga oshirdi. Boburiylar saltanatiga asos solinishi hind diyorida o'lgan bir madaniyat ilm-fan, ma'rifat, tasviriy san'at, me'morchilik, adabiyot va boshqa o'nlab sohalarda shiddatli uyg'unliklarini yuzaga keltirdi. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinkibuyuk davlat arbobi va yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan dono hukmdor bo'lib, ham siyosiy, ham ma'naviy jihatdan juda katta tarixiy ahamiyatga egadir.

Ko'ngil tilag'an murodig'a etsa kishi,

Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.

Bu ikki ish muyassar o'lmasa olamda,

Boshni olib bir sorig'a ketsa kishi.

Kim ko'rubdur, ey ko'ngil, ahli jahondin yaxshilig'?

³ <https://ziyouz.uz> > tarix > sarkarda

*Kimki, ondin yaxshi yo`q, ko`z tutma ondin yaxshilig`!
Gar zamonni naftiy qilsam, ayb qilma, ey rafiq,
Ko`rmayin hargiz, netayin, bu zamondin yaxshilik!`⁴*

Bobur nomida xalqaro ilmiy eksriditsiya mavjud bo`lib, uning a`zolari Bobur qadamjolari bo`ylab besh marta safar uyushtirdilar. Ekspeditsiya materiallari asosida “Bobur va uning jahon sivilizatsiyasida tutgan o`rni” memorial muzeyi tashkil qilinib, uning jamg`armasida Bobur nomi bilan bog`liq 500 dan ortiq kitob va manbalar bor. Bu xususida Hind tarixnavisi L.P.Sharma “Temuriy podsholarning Hindistonga kirib kelishlari bilan ularga qadar yo`qolib borayotgan tasviriy san`at qayta tiklandi” deb ta`kidlaydi.

Bugungi kunda Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari tomonidan yaratilgan ilmiy va madaniy meros asrab avaylanmoqda. Yurtimizda ham Bobur va u yaratgan ilmiy merosni o`rganish bo`yicha bir necha ishlar yo`lga qo`yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. G`.Sotimov, ”Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri”, Toshkent, 2009, 64-bet.
2. Hayriddin Sulton “BOBURNOMA” >ShARQ>NASHRIYOT-MATBAA KONSERNINING BOSH TAHRIRIYATI >TOSHKENT-1997-yil 4-bet.
- I.A.Karimov Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz faravonligini oshirishga xizmat qiladi.-T.: O`zbekiston, 2011.-B.3.

Elektron ta`lim resurslari

1. <https://ziyouz.uz> > tarix > sarkarda
2. Zahiriddin Muhammad Bobur “G`azallar Ruboiylar Tuyuqlar Qit`alar To`rtliklar Masnaviylar Fardlar”- bu kitob nomi ziyo.uz kutubxonasi. 16-bet.

⁴ Zahiriddin Muhammad Bobur “G`azallar Ruboiylar Tuyuqlar Qit`alar To`rtliklar Masnaviylar Fardlar”- bu kitob nomi ziyo.uz kutubxonasi. 16-bet.